

O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"ga (2006-2019) kiritilgan g'ovzabondoshlar oilasining solishtirma tahlili

Madinaxon Abduxalilova
madinaxon14092004@mail.ru
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qizil kitobning yaratilish tarixi hamda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ning 2006-2019- yil nashrlarining 1-tomiga kiritilgan G'ovzabondoshlar oilasining solishtirma tahlili haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qizil kitob, G'ovzabondoshlar, maqomi, o'sish holati, O'zR FA Botanika bog'i.

Comparative analysis of the govzabondosh family included in the "Red book" of the Republic of Uzbekistan (2006-2019)

Madinakhon Abdukhalilova
madinaxon14092004@mail.ru
Andijan State University

Abstract: This article provides information about the history of the creation of the Red Book and a comparative analysis of the Govzabondosh family included in volume 1 of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan in 2006-2019.

Keywords: Read book, Govzabandosh, status, state of growth, botanic garden of the UzR SA.

Bugungi kunda dunyoni «Qizil kitob»siz tasavvur etish qiyin. Yuzlab turlar yo'qolib ketayotgan bir vaqtda «Qizil kitob»ning qadri juda bilinishi muqarrar. Garchi inson faktorining tabiatga ta'siri tobora ortib borayotgan bo'lsa-da, «Qizil kitob» hayvonot va nabotot turlarini saqlashda katta o'rin tutishini ham inkor etmaslik lozim[4].

1948 yilda uncha katta bo'lmagan Fontenblo shahrida (Parij yaqinida) o'tkazilgan xalqaro konferensiyada tabiatni va tabiiy resurslarni asrash xalqaro ittifoqi (TRAI) tashkil etildi. TRAI oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri yo'qolib ketish arafasida bo'lgan, inson yordamiga muhtoj va qutqarib qolish choralari ko'rish shart bo'lgan o'simlik va hayvonot turini aniqlash bo'lgan. Shu maqsadda 1949 yilda doimiy qutqarish qo'mitasi xizmati tashkil etildi. Unga turli

mamlakatlarning taniqli zoologlari kiritildi. Bu qo'mitaga tabiatni asrash bo'yicha eng obro'li mutaxassislardan biri - angliyalik Piter Skott rahbarlik qildi. Qo'mita ulkan ishlarni amalga oshirdi. Uning maqsadi dunyodagi noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonot turlari ro'yxatini tuzish (bilan) va nima sababdan bunday holat yuzaga kelganini tushuntirish edi. Qizil rang - xavf belgisi. Shu sababli Piter Skottning taklifi bilan ro'yxat muvaffaqiyatli tarzda Qizil kitob, deb nomlandi.

Qizil kitobning ilk ko'rinishini tayyorlash uchun 14 yillik og'ir mehnat talab qilindi. U 1963 yilda ikki tomlik kitob ko'rinishida dunyo yuzini ko'rdi. Har bir hayvonot turi uchun alohida sahifa ajratildi va unda qisqa shaklda ayni vaqtdagi va o'tmishdagi yashash tarzi, holati, umumiy soni, himoya qilish bo'yicha qabul qilingan va qilinishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar, tutqinda bo'lgan hayvonlar sanog'i va ko'payishi bilan bog'liq ma'lumotlar kiritildi. Yo'qolib borayotgan eng noyob hayvon turlari esa qizil sahifada chop etildi. Qizil kitobning ikkinchi nashri uch tomndan iborat bo'lib, 1966-1971 yillarda nashrdan chiqarildi[4].

O'zbekiston Qizil kitobi ilk bor 1979 yilda ta'sis etilgan, mazkur Qizil kitobga nabotot olamining kamyob, yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar haqida ma'lumotlar kiritilgan. Bundan ko'zlangan maqsad, jamoatchilik va davlat idoralari e'tiborini tabiat muhofazasi masalalariga jalb etishdan va turlar genofondini saqlab qolishga ko'maklashishdan iborat[3].

“Qizil Kitob”ning 2006- yilgi nashriga 325 ta o'simlik turlari kiritilgan bo'lib, 5 ta tur(mayda moviygul, nurota moviyguli, oqtog' moviy guli, yirik halqagulli tangabarg, Buxoro g'ichmolasi)G'ovzabondoshlar oilasiga mansub turlar hisoblanadi. Ushbu turlardan Yo'qolgan yoki yo'qolgan bo'lishi mumkin mumkin bo'lgan turlar (Maqomi - 0) mavjud emas, Yo'qolish arafasida turgan turlar (Maqomi - 1) ham mavjud emas, kamyob turlar (Maqomi - 2) soni 5ta, son jihatdan kamayib borayotgan turlar (Maqomi - 3) ham mavjud emas. (1-jadval)[1].

Ushbu 5 ta tur o'simlikni hayotiy shakl jihatdan tahlil etganimizda, ushbu o'simliklarning 3tasi bir yillik o't o'simlik, 1tasi 2 yillik va yana bir tur o'simlik ko'p yillik o't o'simlik ekanligi ma'lum bo'ldi.(1-jadval)[1].

1-jadval

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli			O'sish holati		O'sish joyi			
	0	1	2	3	Bir yillik o' t	Ikki yillik o' t	Ko' p lyilliko' t	Tabiiy	Mada-Niylashti-rilgan	Tog'	Adir	Yaylov	Cho' l
			+		+			+		+			
			+		+			+		+			
			+			+		+		+			
			+				+	+		+			
			+		+			+		+			
5	0	0	5	0	3	1	1	5	0	5	0	0	0

“Qizil Kitob”ning 2019-yilgi nashriga 314 ta o’simlik turlari kiritilgan bo’lib bulardan 7 ta tur (Mayda moviygul, nurota moviyguli, oq tog’ moviyguli, yirik halqagulli tangabarg, Buxoro g’ichmolasi, yirik ildizli mexrigiyoh, boshhoqsimon noneya) G’ovzabondoshlar oilasi hissasiga to’g’ri keladi. Ushbu turlardan Yo’qolgan yoki yo’qolgan bo’lishi mumkin mumkin bo’lgan turlar (Maqomi - 0) mavjud emas, Yo’qolish arafasida turgan turlar (Maqomi - 1) soni 4ta, kamyob turlar (Maqomi - 2) soni 3ta, son jihatdan kamayib borayotgan turlar (Maqomi - 3) mavjud emas. (2-jadval)[2].

Ushbu 7 ta tur o’simlikni hayotiy shakl jihatdan tahlil etganimizda, ushbu o’simliklardan 4ta tur 1 yillik o’t o’simlik hayotiga mansub ekanligi, yana bir turning 2 yillik o’t o’simlik hayotiy shakliga mansub ekanligi, yana bir tur ning esa ko’p yillik o’t o’simlik hayotiy shakliga mansub ekanligi ma’lum bo’ldi. (1-jadval).(2-jadval)[2].

2-jadval

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli			O’sish holati		O’sish joyi			
	0	1	2	3	Bir yillik o’ t	Ikki yillik o’ t	Ko’ p lyiliko’ t	Tabiiy	Mada-Niylashti-rilgan	Tog’	Adir	Yaylov	Cho’ l
			+		+			+		+			
			+		+			+		+			
		+				+		+		+			
			+				+	+		+			
		+			+			+		+			
		+			-			+		+			
		+			+			+		+			
7	0	4	3	0	4	1	1	7	0	7	0	0	0

Ushbu maqolada, G’ovzabondoshlar oilasi vakillarining Qizil kitobga (2006-2019-yillardagi nashrlariga)kiritilgan turlari solishtirildi. Bu orqali Qizil kitobga kiritilgan mazkur turlarning soni 2006-2019-yillar oralig’ida 2taga ortganligi, ushbu oilaga mansub Qizil kitobga kiritilgan turlarning madaniylashtirilayotganligi haqida ma’lumotlar yo’qligi, faqatgina 1ta tur bo’yicha olib borilgan ishlar natijasiz tugaganligi ma’lum bo’ldi. Ushbu o’simliklarni aksariyat ko’pchiligi uchun muhofaza choralari ishlab chiqilmagan bo’lib, 1ta tur o’simlik (yirik ildizli mehriyoh) muhofaza qilinmaydi. Buni esa, G’ovzabondoshlar oilasi vakillarining Qizil kitobga kiritilgan turlar soni 2006-2019-yillar oralig’ida ortganligining sabablaridan biri deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2006 .

2. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2016.